

### XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**Ish haqi.** 2019 yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



**Ta'limda** 992 ta muassasada 57919 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 281997,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 44,6 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1597,7 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 139,8 %ga o'sdi;



**Sanoatda** 30 ta korxonada 11759 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi- 9,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 79489,8 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,6 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2210,5 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 114,8 %ga o'sdi;



**Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** 59 ta muassasada 22620 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,5 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 98892,7 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,6 % ni) tashkil etgan. Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1443,2 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 131,9 % ga o'sdi;



**Tashish va saqlashda** 7 ta korxonada 2457 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 18216,0mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,9 % ni) tashkil etgan.Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2468,3 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan

116,6 % ga o'sdi;



**Moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 30 ta muassasada 3004 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 27927,2mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,4 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ishhaqi 3066,6 mln.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 128,0 % ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1726233,8 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlар, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlар kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlар ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 132,4 % ga o'sishi kuzatildi.



**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni  
(2019 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari )**

	Korxona va tashkilotlar soni (birlik)		O'sish sur'ati, %	Xodimlar soni, kishi		O'sish sur'ati %	ulushi
	2018y	2019 y.		2018 y.	2019 y.		
<b>Xorazm viloyati - jami</b>	<b>1483</b>	<b>1563</b>	<b>105,4</b>	<b>118221</b>	<b>121993</b>	<b>103,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>							
Sanoat	34	30	88,2	12343	11759	95,3	9,6
Qurilish	11	12	109,1	1335	1362	102,0	1,1
Savdo	23	16	69,6	2206	1811	82,1	1,5
Tashish va saqlash	7	7	100,0	2512	2457	97,8	2,0
YAshash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	12	150,0	8	89	11,1m	0,1
Axborot va aloqa	18	17	94,4	833	812	97,5	0,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	29	30	103,4	3001	3004	100,1	2,5
Ta'lim	932	992	106,4	56407	57919	102,7	47,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy	59	59	100,0	21427	22620	105,6	18,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	40	42	105,0	1607	1619	100,7	1,3
Boshqa faoliyat turlari	322	346	107,5	16542	18541	112,1	15,2

**Sohalar kesimida ish haqi fondi va  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub’ektlaridan tashqari, so‘m)*


	Ish haqi fondi, mln. so‘m		O‘sish sur’ati, %	ulushi	O‘rtacha oylik ish haqi, so‘m (yanvar-mart)		O‘sish sur’ati, %	ulushi
	2018 yil	2019 yil			2018 yil	2019 yil		
<b>Xorazm viloyati - jami</b>	<b>462269,8</b>	<b>631765,3</b>	<b>136,7</b>	<b>100,0</b>	<b>1303,4</b>	<b>1726,2</b>	<b>132,4</b>	<b>100,0</b>

*shu jumladan:*

Sanoat	72289,0	79489,8	110,0	12,6	1925,6	2210,5	114,8	128,1
Qurilish	4766,3	5837,9	122,5	0,9	1187,4	1418,5	119,5	82,2
Savdo	10722,6	11435,7	106,6	1,8	1588,4	1985,6	125,0	115,0
Tashish va saqlash	15960,0	18216,0	114,1	2,9	2116,3	2468,3	116,6	143,0
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	34,7	257,6	7,4m	0,04	1446,1	960,0	66,4	55,6
Axborot va aloqa	3804,0	4810,1	126,4	0,8	1520,5	1967,7	129,4	114,0
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	21800,8	27927,2	128,1	4,4	2395,0	3066,6	128,0	177,6
Ta’lim	196208,7	281997,7	143,7	44,6	1142,8	1597,7	139,8	92,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy	71062,0	98892,7	139,2	15,7	1093,7	1443,2	132,0	83,6
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	4635,2	6538,1	141,1	1,0	944,8	1298,5	137,4	75,2
Boshqa faoliyat turlari	60986,6	96362,5	158,0	15,3	1221,8	1720,2	140,8	99,7

2019 yil yanvar-mart oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati boshqa faoliyat turlarida 140,8 %, san’at, ko‘ngil ochish va dam olish 137,4 %, ta’limda 139,8 %, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida 131,6 %, savdoda 125,0 %, axborot va aloqa 129,4 % kuzatildi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati**  
 (2019 yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashkari)  
 so‘mida




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 2009787,1 so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (116,4 %), Xazarasp tumanida 1850456,5 so‘mni (107,2 %) tashkil etgan bo‘lsa, Qo‘siko‘pir tumanida 1419897,4 so‘mni (82,3 %), Shovot tumanida 1446758,3 so‘mni (83,8 %) va Yangibozor tumanida 1483350,9 so‘mni (85,9%) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.


**Shahar va tumanlar kesimida xodimlar soni va ish xaki fondi**  
*(2019 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari )*

	Xodimlar soni, kishi		O'sis h sur'at i, %	ulushi	Ish haqi fondi, mln. so'm		O'sish sur'at i, %	ulushi
	2018 y.	2019 y.			2018 y.	2019 y.		
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>118 221</b>	<b>121 993</b>	<b>103,2</b>	<b>100,0</b>	<b>462269,8</b>	<b>631765,3</b>	<b>136,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>								
Urganch	36 114	37 630	104,2	30,8	169519,3	226884,9	133,8	35,9
Xiva	4 656	4 781	102,7	3,9	15776,6	22028,3	139,6	3,5
<i>tumanlar:</i>								
Bog'ot	7 390	7 523	101,8	6,2	25425,3	35224,9	138,5	5,6
Gurlan	7 308	7 680	105,1	6,3	24115,2	34222,1	141,9	5,4
Qo'shko'pir	7 489	8 596	114,8	7,0	25766,3	36616,3	142,1	5,8
Urganch	8 817	8 873	100,6	7,3	32406,8	45433,9	140,2	7,2
Xazorasp	13 148	13 515	102,8	11,1	55816,4	75026,8	134,4	11,9
Xonqa	8 229	8 565	104,1	7,0	30416,5	43020,3	141,4	6,8
Xiva	6 304	6 480	102,8	5,3	21076,3	29932,3	142,0	4,7
Shovot	8 695	7 973	91,7	6,5	27676,3	34605,0	125,0	5,5
Yangiariq	5 596	5 648	100,9	4,6	20055,7	27726,4	138,2	4,4
Yangibozor	4 475	4 729	105,7	3,9	14219,0	21044,3	148,0	3,3

**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2018 yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)**



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil yanvar-mart oylarida 577172,3 so'mni tashkil etgan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18-yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirilish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsientlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi viloyat ta'limiga nisbatan**  
 (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, so'm)

	<i>2019 yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi, so'm</i>	<i>Ulushi</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 597 683,5</b>	<b>100,0</b>
<b>shaharlar:</b>		
Urganch	1 920 993,2	120,2
Xiva	1 495 583,4	93,6
<b>tumanlar:</b>		
Bog'ot	1 542 190,4	96,5
Gurlan	1 444 682,5	90,4
Qo'shko'pir	1 388 597,4	85,6
Urganch	1 577 264,4	98,7
Xazorasp	1 565 254,7	98,0
Xonqa	1 679 624,5	105,1
Xiva	1 533 683,8	96,0
Shovot	1 515 593,8	94,9
Yangiariq	1 689 783,1	105,8
Yangibozor	1 427 072,6	89,3

**Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik  
 sub’ektlaridan tashqari, so‘m)*

